

“TURKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI” JURNALI FAOLIYATI TARIXIDAN

Narziyeva Maftuna Adxamovna

ORCID ID 0009-0002-2053-8900 Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu tezida Turkiston qishloq xo‘jalik jamiyatining “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnali, unda bosilgan maqolalar va xabarlar, bog‘dorchilik, mevachilik, uzumchilik, vinochilik, dala yumushlari, paxtachilik kabi sohalar hamda qishloq xo‘jaligi mashinasozligi yo‘nalishlarida olib borilgan ishlar manbalar asosida ochib berilgan. Bundan tashqari jurnalning yillik faoliyati, maqolalar mualliflari, jurnal faollarining mintaqadagi dehqon va bog‘bonlarni jurnal atrofida birlashtirish, ular erishgan yutuq va yangiliklar bilan jamoatchilikni tanishtirish maqsadida olib borgan ish uslublari haqida ma‘lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnali sahifalarida berib borilgan foydali ruknlar, ilmiy maqolalarning Turkiston o‘lkasida qishloq xo‘jaligi, bog‘dorchilik, polizchilik, pillachilik, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, qishloq aholisining xo‘jalik hayotiga ta’siri va ijobiy natijalar haqida fikr yuritilgan. “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnali Turkistonda qishloq xo‘jaligi madaniyatini rivojlantirishda, yangi ekin navlarini o‘lkada targ‘ib qilishda, dehqon va bog‘bonlar tajribasi va bilimlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati, “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnali, Toshkent uyezdi, Rixard Rixardovich Shreder, Xo‘jand uyezdi.

Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati (TQXJ) o‘z faoliyati davomida Turkistondagi qishloq xo‘jalik sohasidagi o‘zgarishlar va yangiliklarni targ‘ib qilish maqsadida “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnaliga asos soldi. Jurnal 1906-yildan boshlab nashr etilgan va uning dunyo yuzini ko‘rishida Turkiston qishloq xo‘jaligi tajriba stansiyasi boshqaruvchisi Rixard Rixardovich Shreder muhim rol o‘ynagan. R.R.Shreder bir paytning o‘zida TQXJning ham boshqaruvida faoliyat yuritgan. “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnali 1906-1918-yillar oralig‘ida 129 ta jurnal kitobida 4277 ta maqolalar va ma‘lumotnomalarni e‘lon qildi. Jurnal agronomlik hamda tabiiy va ilmiy bilimlarni targ‘ib qildi. 1908-yilda “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnali omborxonasiga asos solinib, unda qishloq xo‘jaligiga oid yuzlab kitob, qo‘llanma, risolalar, Rossiya imperiyasi turli hududlaridan yuborilgan jurnallarning sonlari saqlangan[4;19].

Jurnal manzili Toshkent shahri Iskanskiy ko‘chasi 7-raqamli uyda joylashgan bo‘lib, uning birinchi bosh muharriri agronom N.N.Aleksandrov edi. N.Aleksandrov bir paytda TQXJ ning vitse-prezidenti lavozimida ham faoliyat yuritgan. Hozirda jurnalning to‘la tarkibdagi yillar bo‘yicha sonlari deyarli saqlanmagan. Hatto, Rossiya davlat ommaviy tarix kutubxonasida 1917-yildagi 2 ta soni (№7, №8) saqlangan, xolos. “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnaliga 1906-1914-yillarda N.N.Aleksandrov, 1910-1911-yillarda A.Y.Skvorsov, 1912, 1914, 1916-yillarda R.R.Shreder muharrirlik qilgan. Jurnalning mavjud bo‘lgan yillarida barcha sonlari to‘liq nashr etilmagan. Agar 1906-1909-yillarda va 1911-1916-yillarda jurnalning 12 ta soni ham bosilgan bo‘lsa, 1910-yilda yanvar-iyun oylarida 6 ta soni bosilib, qolgan oylarda faoliyati to‘xtab qolgan[3].

“Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnalida bosilgan maqolalar va xabarlar bog‘dorchilik, mevacchilik, uzumchilik, vinochilik, dala yumushlari, paxtachilik, sabzavotchilik, polizchilik, chorvachilik, sutchilik xo‘jaligi, veterinariya, asalarichilik, parrandachilik, irrigatsiya, sug‘orish ishlari, ipakchilik, texnika, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi kabi o‘nlab yo‘nalishlarga qaratilgan. Jurnalda “Savollar va javoblar”, “Xabarlar”, “Xronika”, “Muxbir xatlari” kabi ruknlar mavjud bo‘lib, qishloq xo‘jalik tovarlari narx-navosi haqida muttasil ma’lumotlar berib borilgan. Jurnalning har bir soni 3-5 ming nusxada chop etilib, uning sonlari obunachilarga, dehqonchilikka ixlosmand va havaskorlarga yetkazib turilgan. “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnaliga obuna narxi bir yilga (1913-yil) 4 rublni, olti oyda 2 rublni, bir oyda 40 kop.ni tashkil etgan, sotuvda bitta nusxasi 60 kop. bo‘lgan. Jurnalning 1906-yil sonlari xaridorlarga to‘liq sotilgan, 1907, 1908, 1909, 1911, 1912, 1913-yillarda jurnalga obuna narxi o‘zgarmay 4 rublligicha saqlangan, 1910-yildan yarim yillik obuna 2 rubl bo‘lgan holda keyingi yillarda 2,5 rublga ko‘paytirilgan [1; 141-142]. “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnali savdo firmalari egalariga, bankirlarga, texnik idoralarga, zavod egalariga, hukumat tashkilotlariga, tog‘- sanoat korxonalariga qadar kirib borgan. Uning o‘quvchilari 1910-1915-yillarda ayniqsa, ko‘p sonli bo‘lgan. “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnali kitoblar omboriga, aholiga, qishloq xo‘jalik sohasi mutaxassislariga sotish uchun Rossiyaning boshqa guberniyalaridan 15-25 ta kitob yuborilgan. Shuningdek, “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnali nashriyotida 10-15 ta qishloq xo‘jalik tarmoqlariga oid risola va qo‘llanmalar chop etilib, arzon narxlarda (10 kop., 15 kop., 20 kop., 40 kop, 60 kop.) talabgorlarga sotilgan. “Turkiston qishloq xo‘jalik kalendari”(yillar bo‘yicha) chop etilib, 25-30 kop.dan sotilgan, jurnal obunachilari uchun esa bepul tarqatilgan.

“Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnali nashriyotida Turkistonda qishloq xo‘jalik sohasi bilan bog‘liq muhim voqealilar munosabati bilan katta hajmdagi hisobot, maqolalar to‘plamlari, TQXJ hisobotlari ham bosilgan. Masalan, “1911-yil Turkiston mevacchiligi, uzumchilar va vinochilarining Toshkent ko‘rgazmasi” hisoboti (Toshkent, –1912-yil. 96-bet), A.A.Diyevskiy Samarqand viloyat uzumchiligining tadqiqoti tajribasi (Toshkent – 1912 yil. 96-bet), Turkiston mevacchilari, sabzavotchilari, asalarichilari, parrandachilarining 1912-yil ko‘rgazmasi (Toshkent – 1913-yil), Maqolalar to‘plami (174-bet; 1912-1914-yillar uchun), TQXJ hisoboti ((1913-1915; 95, 105, 94-betlar) – Toshkent, 1916-yil); N.N.Aleksandrov Земледелие в Сыр-Дарынской области (Toshkent, 1916 –B.1-144.) va hokazo [2; 3; 4; 5].

Agar “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnalining alohida olingan bitta sonini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi holat kuzatiladi. 1911-yilda “Turkiston qishloq xo‘jaligi” jurnalining 12 ta soni ham chop etilgan. Jurnalning 12 soni umumiy hajmi 1111 sahifa bo‘lib, undan 21 sahifasi bayonnomalar, 192 sahifasi tahririyat hisobidan tayyorlangan ilovalar, 80 sahifasi TQXJ hisobotlari, qolgan sahifalari yirik maqolalar, ma’lumotnoma va tavsiyalardan iborat bo‘lgan.

Jurnal sahifalarida qishloq xo‘jaligi turli tarmoqlariga bag‘ishlab yozilgan yirik maqolalari A.Gulshambarov, D.Kukinich, V. Plotnikov, S.Kondrashov, A.Skvorsov, O.Pospalev, M.Grushev, A.Voznetsenskiy kabi TQXJ a‘zolari e‘lon qilganlar.

Ushbu mualliflarning maqolalari Turkistondagi tuproqlarning tarkibi, paxta va kunchut ekini, cho'l va tog' o'rmonchiligi, sun'iy o'rmonchilik, asalarichilik, ipakchilik, mevachilik, sabzavotchilik, polizchilik, parrandachilik, ko'chatchilik, zararkunanda va chigirtkalarga qarshi kurash kabi ko'pdan-ko'p masalalarga yo'naltirilgan [6; 1111].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

[1] O'zbekiston Milliy Arxivi, I-103-fond, 1-ro'yxat, 215-yig'ma jild.

[2] O'zbekiston Milliy Arxivi, I-103-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild.

[3] O'zbekiston Milliy Arxivi, I-103-fond, 1-ro'yxat, 227-yig'ma jild.

[4] Залкин М.И. Из истории научных обществ в Туркестане. Туркестанское общество сельского хозяйства (1885-1917 гг.). Автореф. дисс. на сомск. учён. степ. канд. ист. наук. Изд. САГУ. Ташкент – 1955.

[5] Кондрашев С. О культуре кунжута// Туркестанское сельское хозяйство. – 1912. №1.

[6] Туркестанское сельское хозяйство; 1911г. -№1-12.